



**XXI ASR BOSHLARIDA XORAZM VOHASIDA OLIB BORILGAN ILMIY
TADQIQOTLAR VA TARIXIY YODGORLIKLARNI SAQLASHGA
QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR**

Xujaniyozova Madina Rustam qizi

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix

yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Tel: +998 93 819-21-22

E-mail: madinaxujaniyozova1995@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XXI asr boshlarida Xorazm vohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va Xorazm vohasida joylashgan tarixiy- me'moriy yodgorliklarni saqlashga qaratilgan chora – tadbirlar haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: Arxeologik yodgorlik, me'moriy inshoot, tarixiy bitik, manba, Xiva Ichان-Qal'a, YUNESCO.

Abstract: *This article describes the scientific research conducted in the Khorezm oasis at the beginning of the 21st century and the measures aimed at preserving the historical and architectural monuments located in the Khorezm oasis.*

Key words: Archaeological monument, architectural structure, historical inscription, source, Khiva Ichan-Kal'a UNESCO.

Mustaqillikning o'tgan yillari davomida istiqlol xalqimiz uchun buyuk ne'mat ekanligi, orzu-umidlarining ro'yobi sifatida yurtdoshlarimiz ko'nglidan chuqur joy oldi. Mustaqillik tufayli, milliy qadriyatlarimiz hamda an'analarimiz qaytadan tiklanib, tarixiy merosimizga nisbatan munosabat o'zgardi. O'tgan yillar davomida nafaqat o'zbeklar balki yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning o'zligi va qadr-qimmati mustahkamlandi. Bizga ma'lumki, tarixiy-madaniy merosning muhim tarkibiy qismi bo'lgan arxeologik yodgorliklar va topilmalar, me'moriy inshootlar, tarixiy bitiklar va qo'lyozma manbalar, tarixiy va badiiy asarlar, qoyatosh suratlar, tasviriy va amaliy san'at asarlari, badiiy hunarmandchilik buyumlarining muhofazasi madaniy mamlakatlar hukumatlarining doimo diqqat markazida turuvchi vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida tarixiy yodgorliklarni, nodir kitoblarni, qo'lyozmalarni saqlash ishiga qadimda va o'rta asrlarda ham e'tibor berilgan. Noyob tarixiy yodgorliklar hamda nodir qo'lyozma asrlar saroy kutubxonalarida saqlanib,



maxsus muhofaza etilgan. Ammo ichki siyosiy nizolar, tez-tez ro'y berib turgan o'zaro urushlar va bosqinchilik yurishlari tufayli tarixiy-madaniy meros manzilgohlarining ko'pchiligi vayron qilingan hamda mamlakatimiz hududidan chetga olib ketish holatlari kuzatilgan. Yevropada esa tarixiy-madaniy merosga e'tibor, asosan, Uyg'onish davridan boshlangan. Buyuk fransuz inqilobidan keyin shaxsiy kolleksiyalar natsionalizatsiya qilinib, 1793 yilda Parijda Luvr muzeyini tashkil qilish to'g'risidagi dekret qabul qilingani muhim qadam bo'ldi. "XIX-XX asr boshlari Yevropa davlatlarida tarixiy-madaniy yodgorliklarni davlat muhofazasiga olish bo'yicha muhim davr hisoblanadi"¹. XX asrda ro'y bergen ikkita jahon urushi nafaqat Yevropada, shu bilan birga, boshqa qit'alarda ham tarixiy-madaniy yodgorliklarning ma'lum qismi vayron bo'lishiga, talon-taroj qilinishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin tarixiy yodgorliklarga, tarixiy merosga e'tibor kuchaydi. Bugungi kunda dunyoda tarixiy me'moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanishga oid samarador yo'nalish bo'yicha YuNESKO tashabbusi bilan 413 ta qadimiy shaharlar hududidagi Butunjahon moddiy madaniy meros yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan 1007 ta ob'ektlardan 779 tasi me'moriy yodgorliklar ekanligi diqqatga sazovodir². BMT, YuNESKO, ICOMOS kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan madaniy merosni saqlash va ularni kelgusi avlodga yetkazishga doir - Butun jahon madaniy va tabiiy merosini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (1972); Tarixiy shaharlarni himoya qilish haqidagi xalqaro xartiya (Vashington xartiyasi, 1987); Obidalarni, inshootlar guruhini va diqqatga sazovor joylarni ro'yxatga olishning asosiy qonun-qoidalari (1996); Tahlil qilish, konservatsiya va me'moriy meroslarning tuzilishini qayta tiklashning asosiy qonun-qoidalari (2003); Madaniy meros hisoblangan - tuzilma, ob'ekt vayronalarining atrofini

¹ Ў.Мавлонов, И.Абдувоситова. Тарихий-маданий мерос – миллий фояни англаш омили. –Т.: Академия, 2014. –Б.127.

² Список всемирного наследие ЮНЕСКО::<http://whc.unesco.org/en/list>.



saqlab qolish to‘g‘risidagi Sian deklaratsiyasi (2005) kabi xalqaro hujjatlarning muntazam ravishda qabul qilinishi bu sohaning naqadar muhimligini ko‘rsatib beradi³.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Hozirgi kunda respublikamizda mavjud 7000 dan ziyod yodgorliklardan - 2500 tasi me’moriy yodgorliklar, 2700 tasi arxeologik yodgorliklar va 1800 tasi monumental yodgorliklar bo‘lib, ularning barchasi davlat muhofazasiga olingan. Istiqlol yillarida Samarcand, Buxoro, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent va Termiz kabi qadimiy shaharlarning (2200-2750 yillik) yubileyлari munosabati bilan ko‘pchilik me’moriy yodgorliklar ta’mirlandi, muzey qo‘riqxonalar atroflari obodonlashtirildi.

Mamlakatimizni jadal rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasida shaharsozlik va me’morchilikni yanada takomillashtirish, me’moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish borasidagi muammolarni hal etish chora-tadbirlari belgilangan. “Madaniy meros ob’ektlari xalqning bebaho boyligi, ularni asrash va avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning burchimizdir.Yurtimizdagи tarixiy obidalarni saqlash va ta’mirlash, buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini obod etish bo‘yicha oldimizda hali qanchadan-qancha vazifalar turibdi”⁴. Bu borada Xiva me’moriy obidalarini barqarorligini ta’mirlashga doir boshqaruв rejaliри ishlab chiqilgan bo‘lib, unda madaniy meros yodgorliklarini saqlash va ta’mirlash asosida sayyoхlik yo‘nalishi infrastrukturasini takomillashtirish nazarda tutilgan.

³ “Бирлашган Бошқарув Режаси 2017-2022 Иchan Калъя, Умумжаҳон Маданий Мероси”

⁴ Зўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар билан йигилишдаги маърузаси. 01.07.2017 й.



Jahon miqyosida me'moriy yodgorliklarning arxitekturaviy va badiiy qiymatlariga texnogen va ekologik ta'sirlarni kamaytirishga doir olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari obidalarning umrini uzaytirish va ularni kelajak avlodga asl holida yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qadimiy shaharlar barqarorligini ta'minlash, tarixiy me'moriy obidalarning muhofaza zonasini tiklash, obidalarning turli parametrlari bo'yicha ma'lumotlar bankini tuzish, madaniy meros yodgorliklari asosida sayyohlik yo'nalishlarini kengaytirish, obidalarni konservatsiya qilishda asl qiymatini saqlab qolish, yodgorliklarni qayta qurish va tiklash bo'yicha sifatni ta'minlash kabi ahamiyatli tadbirlar takomillashtirilmoqda.

Milliy davlatchilikning qayta tiklanishi tarixiy madaniy merosimizni saqlash, o'rganishda yangi davrni boshlab berdi. Buyuk o'tmish sohibi bo'lgan millatning ma'naviyati ham ulug' va beqiyos bo'lishiga shubha yo'q. Sababi, o'z ma'naviyati bo'lmanan xalq o'zining betakror tarixini yarata olmaydi. Ma'lumki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu borada ham katta ishlar amalga oshirildi. Qadimgi shaharlarimiz tarixini, nodir me'moriy yodgorliklarni o'rganish, ularning tarixiy qiyofasini saqlab qolish bo'yicha ham muhim ishlar amalga oshirildi. Bu borada olib borilgan siyosat xalqaro miqyosda e'tirof etilganini ham alohida ta'kidlab o'tish zarur. Hozirgi kunda "O'zbekiston bo'yicha to'rtta madaniy-tarixiy ob'ekt – Xiva shahridagi Ichon-Qal'a 1991 yilda, Buxoro shahrining tarixiy markazi 1993 yilda, Shahrisabz shahridagi Amir Temur va temuriylar davri me'moriy yodgorliklari 2000 yilda, Samarqand shahrining tarixiy yodgorliklari 2001 yilda YuNESKOning "Butunjahon tarixiy-madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi"⁵. Termiz shahri yodgorliklarini ham bu ro'yxatga kiritish uchun tegishli hujjatlar tayyorlanib, YuNESKOga taqdim etildi. Bundan tashqari, YuNESKO bilan hamkorlikda quyidagi qadimiy shaharlar 1997 yilda Xiva va Buxoro shaharlarining

⁵ www.ijod.uz



2500 yilligi, 2002 yil – Termiz shahrining 2500 yilligi; 2006 yil – Xorazm-Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi; 2006 yil – Qarshi shahrining 2750 yilligi; 2007 yil – Samarqand shahrining 2750 yilligi; 2007 yil – Marg'ilon shahrining 2000 yilligi; 2009 yil – Toshkent shahrining 2200 yillik tarixiy sanalari keng nishonlandi. Shu bilan birga Samarqanddagi Shohizinda, Toshkentdagি Hazrati Imam kabi qator majmualarda ulkan bunyodkorlik va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Xiva shahrining jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan alohida o'rnini hisobga olgan holda, YuNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil oktabr-noyabr oyalarida Parijda o'kazilgan 28-sessiyasi Xiva shahrining 2500 yilligini dunyo miqqosida keng nishonlash haqidagi qarorni qabul qildi. 1997 yilning 20 oktabrida Xivaning 2500 yillik yubileyi keng nishonlandi. Ushbu tantanaga tashrif buyurgan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Xivaning o'tmishi, buguni va kelajagiga yuksak baho berdi. "Xiva-O'zbekiston faxri!" deya qadimiy shaharning sha'niga iliq so'zlar aytdi⁶. Islom Karimov ta'kidlaganlaridek – "Xiva – go'zal diyorimizning gavhari, xalqimiz san'ati va bunyodkorligi timsoli, madaniy va ma'naviy an'analarimizning abadiyligini mujassam etgan bir mo'jizadir"⁷ Xivaning mo'jizasi hisoblangan Ichan-Qal'a 1967 yilda O'rta Osiyoda yagona qo'riqxona shahar deb tan olindi, 1990 yil dekabr oyida esa YuNESKO tasarrufiga - jahon madaniyati va merosi ro'yxatiga kiritildi va shaharga "Xiva – ochiq osmon ostidagi muzey shahar!" degan oliy maqom berildi.

Yubiley sharofati, yurtboshimiz tashabbusi bilan Xorazm Ma'mun akademiyasiga ham qayta asos solindi. Har qadamda yangilik nishonasi ko'zga tashlanadigan Xiva shahri o'zining asl jozibasini saqlab qolgan, xuddi sharq

⁶ Каримов И. А. Хива шахрининг 2500 йиллигига сўзланган нутк // "Хоразм ҳақиқати", 1997, 21 октябр.

⁷ Каримов И.А. Хоразм – муқаддас замин. Тўпловчи К.Нуржонов. Урганч: Хоразм, 1998.



afsonalarida tasvirlanganidek go'zal shahardir. XIV-XX asrlar arxitektura yodgorliklarining O'rta Osiyoda yagona majmuasi, davlat arxitektura muzey - qo'riqxonasi, xivaliklarning iftixori va hamisha ardoqlab saqlab kelinayotgan Ichan-Qal'a va Deshon-Qal'ada juda ko'plab tarixiy me'moriy obidalar va qadimiy uy-joylar mavjuddir. Xivadagi nodir obidalarni tiklagan binokorlar, usta-me'morlar matematika bilan geodeziyani, astronomiya bilan algebrani yaxshi bilganlar, hamda shaharsozlik, me'morchilik san'atini mukammal egallagan haqiqiy ijodkorlar bo'lishgan.

Bugungi kunda yer yuzining eng qadimiy shaharlari, ya'ni dunyo sivilizatsiyasida Rim, Misr, Mesopotamiya kabi qadim tarixga ega bo'lgan Xorazmda me'morchilik, qurilish naqadar yuksak taraqqiy qilganligini ko'z-ko'z qilib turgan jonli guvohlarimiz – tarixiy me'moriy yodgorliklarga oid ma'lumotlarni o'rganish har birimizning asosiy vazifalarimizdan bittasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ў.Мавлонов, И.Абдувоситова. Тарихий-маданий мерос – миллий ғояни англаш омили. –Т.: Академия, 2014. –Б.127.
2. “Бирлашган Бошкарув Режаси 2017-2022 Иchan Калъа, Умумжаҳон Маданий Мероси”
3. Каримов И. А. Хива шаҳрининг 2500 йиллигида сўзланган нутқ // “Хоразм ҳақиқати”, 1997, 21 октябр.
4. Каримов И.А. Хоразм – муқаддас замин. Тўпловчи К.Нуржонов. Урганч: Хоразм, 1998.
5. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.
6. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 1(1), 122-125.